REMBO POEZIYASIDA LINGVOPOETIK VOSITALARNING KOGNITIV-DISKURSIV TABIATI

Jo‘rayeva Maqsuda Muxammadovna
Buxoro davlat universiteti
Fransuz filologiyasi kafedrasi dotsenti,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
m.m.jurayeva@buxdu.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fransuz va o‘zbek tilshunosligida shakllangan nazariy qarashlarga tayangan holda, jahon poeziyasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan fransuz shoiri Artur Rembo she’riyatida muallifning individual badiiy tafakkurini ochib beruvchi poetik vositalar morfologik, sintaktik va konseptual jihatdan tahlil qilingan. Rembo simvolizm, syurrealizm va XX asr modern poeziyasining shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutgan ijodkor sifatida e’tirof etiladi. Uning asarlari zamonaviy filologiyada lingvopoetik tahlil, kognitiv poetika va semiotik tadqiqotlar uchun sermahsul manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *obraz, ma’no, ifoda, sinesteziya, tafakkur, simvolizm, syurrealizm, poetik vositalar.*

Abstract: *This article, based on theoretical views formed in French and Uzbek linguistics, analyzes the poetic means that reveal the author's individual artistic thinking in the poetry of the French poet Arthur Rimbaud, who made an incomparable contribution to the development of world poetry, morphologically, syntactically and conceptually. Rimbaud is recognized as a creator who played a decisive role in the formation of symbolism, surrealism*

and modern poetry of the 20th century. His works serve as a fruitful source for linguopoetic analysis, cognitive poetics and semiotic studies in modern philology.

Keywords: *image, meaning, expression, synesthesia, thinking, symbolism, surrealism, poetic means.*

Fransuz adabiyoti tarixida eng inqilobiy va ta’sirchan shoirlardan biri Artur Remboni XIX asr fransuz adabiyotida tub burilish yasagan, she’riy tafakkur va badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirgan noyob ijodkor sifatida tanimyiz. U 1854 yilda Fransiyaning Sharlevil shahrida tug‘ilgan. Remboning adabiy faoliyati nihoyatda qisqa bo‘lsa-da, uning she’riy merosi jahon poeziyasi taraqqiyotiga beqiyos ta’sir ko‘rsatgan. Atigi o‘n olti–yigirma yoshlarida yaratilgan asarlar orqali u an’anaviy she’riyat qonun-qoidalariga qarshi chiqib, yangi poetik dunyoqarashni shakllantirgan ijodkordir.

Simvolizm va modern poeziyaning asoschilaridan sanalgan Rembo ijodida she’riy til, obraz va ma’no o‘rtasidagi munosabat mutlaqo yangicha asosda quriladi. U klassik ritm va qofiyadan voz kechib, erkin ifoda, ramziy tasvir va ma’noning ko‘pqavatli tuzilishiga tayanadi. Ayniqsa, uning she’rlarida sinesteziya usuli (badiiy nutqda ayniqsa she’riyatda qo‘llanadigan **poetik-stilistik usul** bo‘lib, unda **turli his-tuyg‘u, sezgi a’zolariga oid taassurotlar bir-biriga uyg‘unlashtiriladi**) muhim o‘rin tutadi: tovush, rang va hissiy taassurotlar bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib, o‘quvchi ongida yangi estetik tajriba yaratadi. “Unli tovushlar”, “Mast kema”, “Do‘zaxda bir fasl” kabi asarlarda bu xususiyatlar yorqin namoyon bo‘ladi.

Artur Rembo she’riyatining nazariy asosi sifatida uning “ko‘ruvchi shoir” (poète voyant) konsepsiyasini alohida qayd etish zarur. Unga ko‘ra,

haqiqiy shoir borliqning chuqur mohiyatini anglash uchun barcha his-tuyg‘ularni izdan chiqarish, ya’ni odatiy idrok chegaralaridan chiqib ketishi lozim. Shu jihatdan Rembo poeziyasi irratsional tafakkur, ong oqimi va ichki iztiroblarning badiiy ifodasi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy lingvopoetikada badiiy matnni tahlil qilishda tilning turli sathlarida namoyon bo‘luvchi poetik vositalarning o‘zaro uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratiladi. Fransuz tilshunosligida (Sh. Balli, R. Yakobson, J. Moline) va o‘zbek tilshunosligida (N. Mahmudov, Sh. Safarov, B. Urinboev) ishlab chiqilgan nazariy qarashlarga ko‘ra, lingvopoetik vositalar muallifning individual badiiy tafakkurini ochib beruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu jihat Artur Rembo she’riyatida ayniqsa yorqin namoyon bo‘ladi.

Rembo poeziyasida fonetik vositalar she’riy ma’no yaratishning mustaqil mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Fransuz poetikasida adabiyotshunos va semiotik Roman Yakobson ta’kidlaganidek, poetik funksiyada tovushning o‘zi ma’no tashuvchi elementga aylanadi. Bu holat «Le Bateau ivre» she’rda undosh va unli tovushlarning takrori orqali harakat, to‘lqin va beqarorlik holatini ifodalashda yaqqol kuzatiladi. Assonans va alliteratsiya vositasida yaratilgan musiqiylik matnning emotsional ta’sirini kuchaytiradi, bu esa o‘zbek tilshunosligida ta’kidlangan “tovush - ma’no uyg‘unligi” tamoyiliga mos keladi.

Shoir Rembo she’riyatida metafora, simvol va sinesteziya markaziy o‘rin tutadi. Fransuz simvolistik an’anasida simvol voqelikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki ramziy anglashni ta’minlaydi. “Voyelles” she’rda har bir unli tovush muayyan rang bilan bog‘lanib, sinesteziya orqali yangi obrazli tafakkur modeli yaratiladi. O‘zbek lingvopoetikasida bunday holat “ko‘pqavatli ma’no”

va “assotsiativ obraz” sifatida talqin qilinadi. Rembo metaforalari real va irreal olam o‘rtasidagi chegarani yo‘qqa chiqaradi, natijada o‘quvchi ongida yangi estetik idrok shakllanadi.

Artur Rembo she’rlarida fe’l zamonlari va shaxs shakllarining o‘zgaruvchan qo‘llanishi sub’ektiv tafakkurni ifoda etishga xizmat qiladi. “Une Saison en enfer” asarida birinchi shaxs shaklining ustuvorligi ichki iztirob va ruhiy parokandalikni kuchli ifodalaydi. Bu holat o‘zbek tilshunosligida ta’kidlangan «grammatik shaklning uslubiy imkoniyati» nazariyasi bilan uyg‘unlashadi. Morfologik vositalar Rembo ijodida nafaqat grammatik, balki falsafiy yuklamaga ham ega.

Sintaktik tuzilishdagi erkinlik Rembo poeziyasining muhim xususiyatidir. Inversiya, ellipsis va parallelizm kabi usullar matnning an’anaviy mantiqiy izchilligini buzib, ong oqimiga yaqin ifoda yaratadi. Fransuz poetikasida bu holat “she’riy diskursning fragmentarligi” sifatida baholansa, o‘zbek ilmiy adabiyotida “intonatsion-ekspressiv sintaksis” tushunchasi bilan izohlanadi. Bu vositalar orqali Artur she’riyati dinamik va ziddiyatli ruhiy holatni aks ettiradi.

Shuningdek, Rembo she’riyatida ma’no ko‘pincha ochiq emas, balki implitsit tarzda berilgan. Bu esa polisemiya va kontekstual ma’no matnning semantik chuqurligini ta’minlaydi. Pragmastilistik nuqtai nazardan, muallif o‘quvchini tayyor ma’no bilan ta’minlamaydi, balki uni ma’no yaratish jarayoniga jalb qiladi. Bu holat professor Nizomiddin Mahmudov tomonidan ta’kidlangan «o‘quvchi faolligiga asoslangan badiiy kommunikatsiya» tamoyiliga to‘liq mos keladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, shoirning ijodiy faoliyati juda erta tugashiga qaramay, uning she’rlari keyingi davr adabiyoti uchun kuchli

manbaga aylandi. Rembo simvolizm, syurrealizm va XX asr modern poeziyasining shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutgan ijodkor sifatida e’tirof etiladi.

Artur Rembo she’riyatida lingvopoetik vositalar tilning barcha sathlarida uyg‘un holda namoyon bo‘lib, muallifning individual poetik tafakkurini ifodalaydi. Fransuz va o‘zbek tilshunosligida shakllangan nazariy qarashlarga tayangan holda shuni ta’kidlash mumkinki, Rembo poeziyasi lingvopoetik tahlil uchun namunaviy material bo‘lib, modern estetikaning til vositalari orqali qanday shakllanishini yaqqol ko‘rsatadi.

Artur Rembo she’riyati badiiy tilning imkoniyatlarini kengaytirgan, poetik tafakkurni yangi bosqichga ko‘targan muhim adabiy hodisadir. Uning asarlari zamonaviy filologiyada lingvopoetik tahlil, kognitiv poetika va semiotik tadqiqotlar uchun sermahsul manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ko‘chiboev A. Matn pragmatikasi. -Samarqand, 2015. 43-B
2. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T., 1988.
3. Moskalskaya O.I. Grammatika teksta. – M.: Vыsshayashkola, 1981.
4. Hasanov A. Abdulla Qahhor hikoyalari tilining badiyatini ta’minlovchi leksik-stilistik vositalar. Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – T., 2010. – B.10.
5. Umirova S. O‘zbek she’riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik. Samarqand. 2019. Filol.fanlari bo‘yicha falsafa dok.avtoreferati. 15-b.
6. Qudratov T. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. –T.: O‘qituvchi,1993.
7. Yuldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. DDA. –T., 2009.

8. https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/artur-rembo-sherlar.html
9. https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/fransuz-sheriyati/artur-rembo-1854-1891/